# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2023-YIL — INSONGA E’TIBOR VA SIFATLI TA’LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: **Info@xs.uz** ● 2023-yil 18-noyabr, № 245 (8588) | **Shanba** | Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# SURXONDARYONING JUDA KATTA IQTISODIY SALOHIYATI, MARD VA MEHNATKASH XALQI BOR

**Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 16-17-noyabr kunlari hududlar iqtisodiyoti, muhim ijtimoiy dasturlar ijrosi bilan tanishish maqsadida Surxondaryo viloyatida bo‘ldi.**





Tashrifning ikkinchi kuni Termiz shahrida barpo etilgan Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasini borib ko‘rdi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 21-apreldagi qaroriga muvofiq, mamlakatimizning barcha hududlarida yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari tashkil etilmoqda. Bu ularning tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va yuritishlari uchun zamin bo‘lmoqda.

Termiz shahrining Tinchlik mahallasi hududida ham shunday sharoit tashkil etildi. 2 gektar maydondagi binolarda jami 42 ta loyiha joylashtirildi. Ular qurilish materiallari, kimyo va neft-kimyo, mebelsozlik, oziq-ovqat, to‘qimachilik sanoatiga taalluqli. Binolarni xarid qilish, uskunalar olib kelish va ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish uchun Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasidan imtiyozli kreditlar tijorat banklari orqali ajratiladi. Barcha korxonalar ishga tushgach, 500 dan ortiq ish o‘rinlari yaratiladi.

Davlatimiz rahbari bu yerda joylashtirilgan korxonalar mahsulotlarini ko‘zdan kechirdi. Ulardan biri anor sharbatini qadoqlab, qo‘shni davlatlarga eksport qilmoqda. Yana biri kiyim va gilam to‘qishni yo‘lga qo‘yib, xotin-qizlarni ish bilan ta’minlagan.

Prezident bunday sanoat zonalarini viloyatning har bir tumanida barpo etish, mahallalarda hunarmandchilik, kasanachilikni kengaytirish zarurligini ta’kidladi. Ikki yillik tajribadan kelib chiqib, Surxondaryoda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha alohida qaror qabul qilish, bunga 50 million dollar mablag‘ ajratish bo‘yicha taklif ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

**(Davomi 2-betda).**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

FARMONI

## ISH HAQI, PENSIYALAR VA NAFAQALAR MIQDORINI OSHIRISH TO‘G‘RISIDA

Aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘lamini kengaytirish, fuqarolarning daromadlarini izchil oshirib borish siyosatini davom ettirish hamda ularning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish maqsadida:

1. **2023-yil 1-dekabrdan** boshlab:

budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdori **7 foizga**;

bazaviy hisoblash miqdori **3 foizga oshirilsin**.

2. **2023-yil 1-dekabrdan** boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududida:

mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori — oyiga **1 050 000 so‘m**;

bazaviy hisoblash miqdori — oyiga **340 000 so‘m**;

pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori — oyiga **372 000 so‘m**;

yoshga doir eng kam pensiya miqdori — oyiga **725 000 so‘m**;

nogironlik pensiyalari, jumladan, ish staji to‘liq bo‘lmagan chog‘dagi nogironlik pensiyasining eng kam miqdori — oyiga **800 000 so‘m**;

mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nogironlik nafaqasi va bolalikdan nogironligi bo‘lgan shaxslarga beriladigan nafaqa miqdori — oyiga **800 000 so‘m**;

1941 — 1945-yillardagi urush oqibatida nogiron bo‘lgan shaxslar va uning qatnashchilari, shuningdek, fashistlar konslagerlarining voyaga yetmagan sobiq mahbuslari va Leningrad shahri qamal qilingan davrda ishlagan shaxslarning eng kam pensiya miqdori ustamalarni inobatga olgan holda — oyiga **3 527 000 so‘m**;

belgilangan yoshga doir eng kam pensiya miqdoridan (725 000 so‘mdan) 800 000 so‘mgacha pensiya oluvchilarning yoshga doir pensiyalari miqdori — oyiga **800 000 so‘m**;

zarur ish stajiga ega bo‘lmagan keksa yoshdagi fuqarolarga beriladigan nafaqa miqdori — oyiga **608 000 so‘m**;

ish staji to‘liq bo‘lmagan chog‘dagi yoshga doir pensiyaning eng kam miqdori qo‘shimcha to‘lovni hisobga olgan holda — oyiga **608 000 so‘m**;

o‘zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo‘lgan 18 yoshgacha bolalarning parvarishi bilan band bo‘lgan bolaning qonuniy vakiliga beriladigan nafaqa miqdori — oyiga **608 000** so‘m;

boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi oluvchilarning bir nafar mehnatga qobiliyatsiz oila a’zosi uchun nafaqa miqdori — oyiga **608 000 so‘m** etib belgilansin va keyingi har bir mehnatga qobiliyatsiz oila a’zosi uchun — **212 000 so‘mdan qo‘shilsin**;

boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi oluvchilarning bir nafar mehnatga qobiliyatsiz oila a’zosi uchun pensiyaning eng kam miqdori — oyiga 608 000 so‘m etib belgilansin va keyingi har bir mehnatga qobiliyatsiz oila a’zosi uchun **amaldagi tartibga muvofiq pensiya to‘lansin**.

3. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqlari, pensiyalar va nafaqalar miqdori oshirilishi bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplansin.

4. Ish beruvchilarga ish haqi miqdorini qonunchilik hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan holda to‘lashni ta’minlab, ish haqi miqdorini mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga muvofiq oshirish tavsiya etilsin.

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi mazkur Farmonning ijrosini ta’minlash hamda ta’lim va tibbiyot muassasalarida qo‘shimcha quvvatlarning yaratilishi, o‘quvchilar soni hamda birlamchi tibbiyot muassasalari sonining ortishi natijasida qo‘shimcha shtat birliklari kiritilishi hisobiga ish haqi xarajatlari uchun talab etiladigan qo‘shimcha mablag‘larning Davlat budjetidan ajratilishini ta’minlasin.

6. Iqtisodiyot va moliya vazirligi:

O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan birgalikda ushbu Farmonning maqsadi, vazifalari va undan kutilayotgan natijalarni ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish ishlarini tashkil qilsin;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

7. Mazkur Farmonning ijrosini ta’minlash uchun mas’ul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazir o‘rinbosari J.A. Qo‘chqorov belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2023-yil 17-noyabr

## “NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AKSIYADORLIK JAMIYATI VA “NAVOIYURAN” DAVLAT KORXONASI JAMOALARIGA

Qadrli vatandoshlar!

Siz, azizlarni Navoiy kon-metallurgiya kombinati tashkil etilgani va yurtimizda uran sanoatiga asos solinganining 65 yilligi bilan chin qalbimdan samimiy tabriklayman.

Sizlarning fidokorona mehnatingiz bilan bepoyon Qizilqum bag‘ridan qazib olinayotgan, dunyo miqyosida yuksak e’tirof etilayotgan oltin, tabiiy uran va boshqa nodir qazilma boyliklar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda beqiyos strategik ahamiyatga ega ekani barchamizga yaxshi ma’lum.

Shu ma’noda, 40 dan ortiq millatga mansub qariyb 50 ming nafar yuqori malakali ishchi, muhandis va mutaxassislar mehnat qilayotgan mazkur kombinat va 3 yil oldin uning tarkibidan ajralib chiqqan “Navoiyuran” korxonasi milliy sanoatimiz faxri, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Keyingi yillarda soha rivojiga qaratilayotgan ulkan e’tibor hamda ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalar jadal joriy etilayotgani tufayli kombinat oltin ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi xorijiy kompaniyalar orasida 7-o‘rindan 4-o‘ringa ko‘tarildi. “Muruntov” koni esa xalqaro reytinglarda yuqori pog‘onalarni egallab kelmoqda.

Qisqa muddatda kombinatda 23 ta yirik investitsiya loyihasi, jumladan, 5, 6 va 7-gidrometallurgiya zavodlari, 2-gidrometallurgiya zavodining ikkinchi navbati ishga tushirilib, 15 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratilgani diqqatga sazovordir. Ana shunday sa’y-harakatlar natijasida bu yil oltin ishlab chiqarish hajmi 2016-yilga nisbatan 25 foiz, tabiiy uran 20 foiz, kumush esa 46 foizga oshganini alohida ta’kidlash lozim.

Bugungi kunda O‘zbekiston uran qazib olish bo‘yicha dunyoda 5-o‘rinni egallab turibdi. “Navoiyuran” davlat korxonasi o‘z mahsulotini yuz foiz eksportga yo‘naltirmoqda.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida yangi quvvatlar uchun zarur asbob-uskuna va jihozlar hududning o‘zida ishlab chiqarilmoqda. Birgina Navoiy mashinasozlik zavodida yiliga o‘rtacha 15 ming turdan ziyod import o‘rnini bosadigan mahsulotlar tayyorlanayotgani buni tasdiqlaydi.

Soha uchun malakali muhandis kadrlar yetkazib berish maqsadida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining moddiy-texnika bazasi va ilmiy-pedagogik salohiyati mustahkamlanmoqda. Murakkab texnologik jarayonlarni, asosan, ana shunday oliygohlarimizda ta’lim olgan azmu shijoatli yoshlarimiz boshqarayotgani barchamizni quvontiradi.

Ishchi va xizmatchilar mehnatini rag‘batlantirish, ularning mehnat va dam olish sharoitlarini yaxshilash doimo e’tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda. Ko‘plab konchilarimiz Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanmoqda. Bugungi bayram munosabati bilan yana bir guruh soha vakillari faxriy unvon, orden va medallarga sazovor bo‘ldilar. Ularni ana shunday yuksak mukofotlar bilan chin dildan tabriklab, kelgusi faoliyatlarida muvaffaqiyatlar tilayman.

Hurmatli do‘stlar!

Biz “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida ushbu sohada ham ko‘plab ishlarni amalga oshirishni reja qilganmiz. “Oqtov” konini o‘zlashtirish, ko‘plab yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda uran qazib olish va qayta ishlash hajmini uch barobar ko‘paytirish shular jumlasidandir.

O‘z hayotini shunday muhim sohaga bag‘ishlagan siz, azizlar jamoalaringizdagi shonli mehnat an’analarini munosib davom ettirish, mamlakatimiz kon sanoati shuhratini yanada oshirish uchun bundan buyon ham katta kuch-g‘ayrat bilan mehnat qilasizlar, deb ishonaman.

Sizlarni bugungi qutlug‘ ayyom bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt, oliyjanob faoliyatingizda ulkan zafarlar tilayman.

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**




## MILLIY IFTIXOR VA G‘URUR TIMSOLI

*Bayroq — erkinlik, ozodlik, tinchlik va barqarorlik timsoli hisoblanadi. Milliy davlatchiligimiz tarixining barcha davrida u Vatan ramzi sifatida muqaddas sanalgan.*

*Jonajon O‘zbekistonimiz bayrog‘i dunyodagi eng chiroyli va ko‘rkam bayroqlardan biri, desak, ayni haqiqat. Chunki u bizning hech kimdan kam emasligimiz va aslo kam bo‘lmasligimizni ifoda etadi. Milliy tug‘imizda ruhiyatimiz, Vatanimiz va xalqimizga mehr-muhabbatimiz, kelajakka ishonchimiz mujassam.*

➡ 2

## INSON MANFAATLARI USTUVORLIGIGA UYG‘UN FAOLIYAT

*Olmish besh yil muqaddam Navoiy kon-metallurgiya kombinatining tashkil etilishi mamlakatimizda yangi Navoiy shahriga asos solinishiga zamin hozirlagan edi. Bugun navqiron ushbu shahar farahbaxsh tantanalar og‘ushida, desak, mubolag‘a emas.*

*O‘tgan davrni taraqqiyot nuqtayi nazaridan shartli ravishda 33 va 32 yilga ajratsak, istiqlolimizning serxosiyat yillari shahar hamda korxona hayotida mutlaqo yangi sahifa ochganligining guvohi bo‘lish mumkin. Zero, barcha jabha, soha va tarmoqlarda yangilanish hamda yuksalish tadbirlari inson manfaatlari ustuvorligiga uyg‘un ravishda kechib, mamlakat rahbariyatining istiqbolli dasturlari izchillik bilan amalga oshirilayotir.*

### E’tirof

Berilgan iqtisodiy mustaqillik va imkoniyatlar kombinatga xalqaro aloqalarni kengaytirish hamda jahon hamjamiyatining industrial rivojlangan mamlakatlari ishbilarmon doiralari e’tirofiga sazovor bo‘lish, teng manfaatli hamkorliklarning o‘rnatilishida bosh omil bo‘lmoqda.

Tom ma’noda, shonli sana kombinatning 65 yillik tarixi uchun o‘ziga xos sarhisobki, erishilgan yutuq va istiqboldagi vazifalar tantanalar doirasida tashkil etilgan xalqaro konferensiyalar, ilmiy-amaliy anjumanlarda atroflicha muhokama qilindi.

Bayramning rasmiy tantanalari muhtasham Farhod madaniyat saroyida bo‘lib o‘tdi. Viloyat faollari, ishlab chiqarish ilg‘orlari, konchilar, mashinasozlar, mehnat faxriylari, olimlar, chet ellik mehmonlar, shijoatkor yoshlarni o‘z bag‘riga olgan ushbu koshona bu gal har qachongidan-da fayzli hamda tarovatli bo‘ldi.

➡ 3

# SURXONDARYONING JUDA KATTA IQTISODIY SALOHIYATI, MARD VA MEHNATKASH XALQI BOR

(Davomi. Boshlanish 1-betda).

— Bugungi tadbirkor yoshlar — Yangi O'zbekiston mahsuli. Ularning bilimi ham, intilishi ham yangicha. Shuning uchun sanoat zonalarini yoshlarning o'ziga berish kerak. Bu tumanlar uchun tayyor "loyihalar fabrikasi" bo'ladi. Mutasaddilar faqat korxonalarni innovatsiyaga o'tkazishga, bozorga chiqishga ko'maklashishi kerak. Bunda asosiysi — tannarx, sifat, raqobat, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shuningdek, bu viloyat yoshlarining sportga qobiliyati zo'rligi, lekin ular shug'ullanayotgan sport turlari cheklanib qolgani qayd etildi. Shu bois Surxondaryo yoshlarini sportga jalb qilish bo'yicha qaror loyihasini ishlab chiqish vazifasi belgilandi. Bu maqsadlarga 30 milliard so'm yo'naltirilishi ko'zda tutilmoqda. "Uchqizil" suv omborida baydarka va kanoeda eshkak eshish bazasi tashkil qilinadi.

Bu yerda mahalliy sanoat mahsulotlari namoyish etildi, investitsiya loyihalari taqdimoti o'tkazildi. Surxondaryo viloyatida umumiy qiymati 4 milliard 600 million dollarlik 82 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Buning 4 milliard dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyadir. Energetika, kimyo, tog'-kon, qurilish materiallari, to'qimachilik va boshqa sanoat tarmoqlaridagi bu loyihalarda qo'shimcha qiymatli mahsulotlar, o'n minglab ish o'rni yaratiladi.

Termiz shahrida Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida Surxondaryo viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan yig'ilish o'tkazildi.

Hudud izchil rivojlanmoqda. Oldinda rejalar, imkoniyatlar ham ko'p. Xususan, 3 milliard 300 million dollarlik 4 ta yangi yirik sanoat loyihasi shakllantirilgan. Bular hisobiga viloyat iqtisodiyotiga yiliga 6,5 trillion so'm, budjetiga 1,6 trillion so'm, eksportiga 100 million dollar qo'shiladi, 2 mingta yuqori daromadli ish o'rinlari ochiladi. Jumladan, Boysundagi qariyb 3 milliard dollarlik gaz-kimyo majmuasida yiliga 5 milliard kub metr gaz tozalanib, 6 trillion so'mlik tabiiy gaz va oltingugurt ishlab chiqariladi. Viloyatga yiliga o'rtacha 120 million dollarlik eksport tushumi qo'shiladi. Geologiya qidiruv ishlari kengaytirilib, yana 100 milliard kub metr gaz zaxiralari ochiladi.

— Surxondaryoda juda katta iqtisodiy salohiyat, yer osti va yer usti boyliklari, mard, mehnatkash xalqi bor. Hozircha bu salohiyatning yarmidan ham foydalanilmayapti. Sharoit yaratib, ish o'rni, investitsiya, eksport va tushumni karra-karra oshirish lozim, — dedi davlat rahbari.

Shu bois kelgusi yili viloyatda 1,5 milliard dollar investitsiya olib kelib, sanoatda 12 trillion so'm mahsulot ishlab chiqarish, eksportni 500 million dollarga yetkazib, 100 million dollar importni qisqartirish vazifalari ko'rsatib o'tildi. 400 ming aholini band qilish viloyat va tuman hokimlarining asosiy vazifasi bo'lishi kerakligi aytildi.

Viloyatga investitsiya jalb qilish va sanoatni rivojlantirishdagi eng katta zaxira — bu mavjud konlarni ishga solish ekani ta'kidlandi.

Sariosiyoda qo'rg'oshin, rux, oltin va oq marmar, Boysun va Sariosiyoda ko'mir, Sherobodda kaliy o'g'iti zaxiralarini o'zlashtirish bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi. Tog'li hududlarda geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish vazifasi qo'yildi.

Surxondaryo o'zining tabiiy tuproq-iqlim sharoiti bilan ertaki mahsulotlarni yetishtirishda birinchi o'rinda bo'lishi mumkin. Lekin hosildorligi yuqori urug' va ko'chat bilan ta'minlashda muammolar bor. Shu bois Qishloq xo'jaligi vazirligiga 10 ta tumanda invitro laboratoriyalarini tashkil qilish topshirildi.

Kelgusi yilda dala chetlarida quritish va saralash uskunalari hamda 70 ta kichik sovitkichlar o'rnatiladi. 100 ming gektarda ixcham issiqxonalar tashkil qilib, barra piyoz, brokkoli, rozmarin, rukkola, qizil rayhon, yalpiz kabi eksportbop ekinlar yetishtiriladi.

Angor, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Oltinsoyda 6 ta saqlash, quritish va saralash markazi, Termiz tumanida Janubiy Koreya bilan birga 50 million dollarlik logistika xabi tashkil etilishi belgilandi.

Ingichka tolali g'o'za 15 foizgacha kam suv talab qiladi va erta pishadi. Shu bois bunday g'o'za navlari maydonini 50 ming gektargacha kengaytirish, uni qayta ishlashni 30 foizga yetkazish, molekulyar genetika va seleksiya bo'yicha qo'shma loyiha va zamonaviy laboratoriya tashkil etishga topshiriq berildi.

Yig'ilishda suv tanqisligi muammosiga ham alohida to'xtalib o'tildi. Surxondaryoda 80 foiz yerlar nasos orqali sug'oriladi. Suv tannarxi 2 barobar qimmatga tushyapti, yiliga 20 million kilovatt soat elektr behuda sarflanyapti.

— "Suv tekin emas" degan g'oyani aholiga chuqur singdirish, uni mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar va keng jamoatchilik bilan birga kundalik turmush qoidasiga aylantirish lozim, — dedi Prezident.

Mutasaddilarga 47 ta kanalni betonlash bo'yicha ikki yillik dastur ishlab chiqish, suv yo'qotilishi ko'p bo'lgan 6 tasini ta'mirlash bo'yicha topshiriq berildi.

Viloyatning turizm salohiyati ham yuqori. Bu yerda 600 dan ziyod madaniy meros va turizm manzillari bor. Hozirda "Dalvarzintepa" yodgorligida ochiq osmon muzeyini tashkil qilish bo'yicha ish boshlangan.

Buni davom ettirib, Boysundagi "Boybuloq", "Teshiktosh" va "Machay" g'orlari, Uzundara qal'asini ham shunday muzeylarga aylantirish kerakligi ta'kidlandi. Sheroboddagi "Xatak" g'ori va Zarautsoy qoyatoshiga xorijiy olimlar ekspeditsiyasi jalb etiladi. Sangardak kabi yana 10 ta mahalla turizm qishlog'iga aylantiriladi.

"Omonxona" sanatoriysi ta'mirlanib, quvvati kengaytiriladi. Yana bitta yangi sanatoriy ham quriladi. Boysun, Oltinsoy, Sariosiyo va Sherobodda dor yo'li, mehmonxona va savdo xizmatlarini tashkil qilish bo'yicha 200 million dollarlik loyihalar amalga oshiriladi.

Yig'ilishda ijtimoiy masalalarga ham alohida e'tibor qaratildi.

Kasalliklarning oldini olish uchun har bir mahalla va dorixonalarda fitobarlar tashkil qilish, uy sharoitida qilinadigan mashqlar dasturi va sog'lom ovqatlanish menyusini ishlab chiqish muhimligi ta'kidlandi.

"Boysun", "Shalola", "Boychechak", "Bulbuli go'yo" kabi badiiy jamoalarning xalqaro festivallarda ishtirok etishiga ko'maklashish, doston va termalarning "Oltin fondi" yaratish zarurligi aytildi.

Surxon yoshlarini sportga jalb etishni kengaytirish bo'yicha alohida qaror qabul qilinishi belgilandi.

Yig'ilish davomida vazirlar va hokimlar, ziyolilar, tadbirkorlarning fikr va takliflari eshitildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev "Indenim Textile" klasterining Termiz shahridagi to'qimachilik korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Bu korxona 2019-yilda ishga tushirilgan bo'lib, uning umumiy qiymati 10 million dollardan ziyod. Germaniya, Yaponiya, Turkiya va Xitoy kabi davlatlardan keltirilgan ilg'or texnologiya va uskunalar samarasida yiliga 800 turdagi 9 million dona kiyim-kechaklar ishlab chiqarish quvvati yaratilgan. Ularning bir qismi eksportga, asosiy qismi ichki bozorga — "Indenim" do'konlariga yetkazib berilmoqda.

Davlatimiz rahbari korxonadagi ish jarayonini, mahsulotlarni ko'zdan kechirdi.

— Yurtimizda to'qimachilik xomashyosi bor, mahsulotlar sifati ham yaxshilanib borayapti. Faqat bizda dizayn maktabi yo'q. Hozir dunyoda uslublar tez o'zgarayapti. Kiyim korxonalarimiz raqobatbardosh bo'lishi uchun dizayn maktabini rivojlantirish kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu borada kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, mutaxassislarni Italiya kabi dizayn sohasi taraqqiy etgan mamlakatlarga tajriba uchun yuborish bo'yicha ko'rsatma berildi. Shuningdek, bozorni o'rganish va prognozlashtirish hamda tadbirkorlarga ko'maklashish zarurligi ta'kidlandi.

Korxonada monomarkaz tashkil etilgan, ishchilar avval shu yerda o'qitiladi. Bugungi kunda 800 nafar xotin-qizning bandligi ta'minlangan.

"Indenim Textile" klasterining paxta yetishtirish va qayta ishlash, ip-kalava tayyorlash, kiyim ishlab chiqarish hamda sotish zanjiri yaratilgan. Ularda jami 9 ming nafardan ortiq xodim mehnat qilayotir.

Davlatimiz rahbariga korxonaning istiqboldagi rejalari haqida ma'lumot berildi. Kelgusida mato to'qish va bo'yash, kiyim-kechak ishlab chiqarish hajmi oshiriladi. Buning uchun umumiy 55 million dollar investitsiya yo'naltiriladi. Natijada yana 10 mingta yangi ish o'rni yaratilishi kutilmoqda.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Surxondaryo viloyatiga tashrifi yakunlandi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,**
**Ikrom AVVALBOYEV,**
**Xolmo'min MAMATRAYIMOV,**
**O'zA muxbirlari.**

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

# ERKINLIK, OZODLIK, TINCHLIK VA BARQARORLIK RAMZI

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya hamda Yoshlar parlamenti hamkorligida "Davlat bayrog'i — milliy g'urur, mustaqillik va birlik ramzi" mavzuida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.*

Ta'kidlanganidek, O'zbekiston mustaqillikka erishganining dastlabki yilidanoq mamlakat suverenitetining muhim belgisi — Davlat bayrog'iga ega bo'ldi. 1991-yil 18-noyabr kuni "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bayroq suverenitetimizning ramzi hisoblanishi, shu bilan birga, xalqaro munosabatlarda davlat timsoli bo'lishi mazkur qonunda belgilab qo'yildi.

Bugun bayrog'imiz faqat O'zbekiston Respublikasi davlat ramzi emas, shu yurtda tug'ilib, shu zaminning mehridan qonib yashayotgan barcha el-elatlarning tinchlik va ahillik timsoliga, qalblarni yaqinlashtiradigan vositaga aylandi.

Qonunchilik palatasi deputatlari, Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya va Yoshlar parlamenti a'zolari mamlakat va jamiyat taraqqiyoti hamda uning barqarorligida davlat ramzlarining alohida o'rni borligini, xususan, milliy bayrog'imiz davlat va jamiyat hayoti, uning jahon hamjamiyatidagi rolini ko'rsatishda muhim ahamiyatga egaligini qayd etdi.

Tadbirda so'zga chiqqan O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi, O'zbekiston xalq rassomi Akmal Nuriddinov davlat ramzlari, jumladan, davlat bayrog'ini yaratish aslida musavvir qalamiga mansub ijodiy ishligini, o'z vatanining davlat bayrog'ini yaratish va uning muallifi bo'lish ijodkor uchun ulkan faxr, iftixor ekanini bildirdi.

O'tgan yillar davomida Davlat bayrog'iga oid qonunchilikni yanada takomillashtirish bo'yicha salmoqli ishlar qilindi. Xususan, 2023-yil 7-iyul kuni "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonun qabul qilindi.

Qonunchilikdagi o'zgarishlar davlatimiz ramzlari elementlaridan xususiy manfaat yo'lida foydalanishning oldini olishga xizmat qiladi. Asosiysi, tarixiy va boqiy qadriyatlarimiz asosida yaratilgan, xalqimizning o'tmishi, buguni va kelajagi timsoli bo'lgan davlatimiz bayrog'i va gerbiga nisbatan hurmatni qonuniy jihatdan mustahkamlaydi.



Tadbirda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari — bayrog'i, gerbi va madhiyasiga egaligi, davlat ramzlari davlat himoyasida ekanligi alohida belgilab qo'yilgani, so'nggi yillarda joylarda mag'rur hilpirayotgan bayrog'imiz atrofida turli ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar tashkil etilayotgani qayd etildi. Hozirgi davr yoshlarda Vatanga muhabbatni yanada kuchaytirish maqsadida bayroqdan foydalanish doirasini kengaytirish zaruratini taqozo etayotgani aytildi.

— Bayrog'imizda aks etgan har bir rang, belgi yurtimizning boy tarixi, milliy davlatchiligimiz, bebaho qadriyatlarimizni, Vatanimizning buyuk kelajagini ifoda etib, respublikaning milliy-madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtiradi, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Oydin Abdullayeva. — Shu bois bayrog'imizga nazar solganimizda biz ruhan jo'shqinlikni, azmu shijoatimiz oshganini, qalbimizda g'urur va buyuk istiqbolga ishonch tuyg'usini his etamiz. Zotan, bayroq bu — erkinlik, ozodlik, tinchlik va barqarorlik timsoli, u bor ekan, millat bor, davlat va Vatan bor. Demak, sarbaland qaddimiz va qadrimiz timsolini hamisha e'zozlashimiz va boshimiz uzra baland ko'tarishimiz kerak.

Tadbirda so'z olganlar davlat ramzlariga oid qonunosti hujjatlarini yanada takomillashtirish, yosh avlodni davlat ramzlariga nisbatan hurmat, faxr-iftixor ruhida tarbiyalash borasida tashviqot-targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirish lozimligini bildirdi.

Tadbirda bildirilgan fikr-mulohazalar yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

**"Xalq so'zi".**

Konferensiya

# DO'STLIK RISHTALARINI MUSTAHKAMLASHGA ULKAN HISSA QO'SHGAN ADIB

*Amaliy tashrif bilan Qirg'iz Respublikasida bo'lib turgan Oliy Majlis Senati Raisi boshchiligidagi parlament delegatsiyasi Bishkek shahrida Chingiz Aytmatov tavalludining 95 yilligiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada ishtirok etdi.*

Anjumanda ulug' adib ijodiy merosining ahamiyati, asarlarida tarannum etilgan yuksak insoniy fazilatlar, uning yirik jamoat arbobi sifatidagi faoliyati, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash yo'lidagi beqiyos xizmatlari haqida mulohazalar bildirildi.

Xususan, ishtirokchilar Chingiz Aytmatov ijodi, uning betakror asarlari qator tillarga tarjima qilingani, shu bois adibning ko'plab asarlari jahon adabiyotining eng sara namunalari qatoridan joy olgani hamda yozuvchi shaxsi va uning ijodiy merosi xususida so'z yuritdi.

Oliy Majlis Senati Raisi o'zbek xalqi buyuk adibning O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtasidagi qardoshlik rishtalarini mustahkamlashga qo'shgan ulkan hissasini doimo yodda saqlashini va minnatdorlik hissi bilan qayd etishini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining qarori bilan buyuk yozuvchi va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligi O'zbekistonda adabiyot va kitobxonlik, do'stlik va birodarlik bayrami sifatida keng nishonlangani, yozuvchi xalqlarimiz o'rtasidagi tinchlik-totuvlikni saqlash, do'stlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, milliy adabiyot va madaniy aloqalarni rivojlantirishga qo'shgan munosib hissasini alohida qayd etdi.

**"Xalq so'zi".**

Senator va hayot

# OLIS TOG' QISHLOG'IGA ELEKTR KELDI

*Yodingizda bo'lsa, shu yilning avgust oyida senator Abdug'ani Sanginov sa'y-harakatlari bilan Sariosiyo tumanining olis "Vochax" qishlog'ini elektrlashtirishga kirishilgandi.*

Aslida bu ishlar aprel oyida senator tomonidan tumanda o'tkazilgan uchrashuvlar chog'ida "Vochax" qishlog'ida istiqomat qilayotgan 120 nafar aholi vakillarining murojaatidan so'ng boshlab yuborilgan edi.

O'tgan vaqt mobaynida maxsus texnikalar va mutaxassislar yordamida 100 dona temir ustun va bir dona 160 kV transformator o'rnatildi. Olib borilgan shu kabi samarali ishlar natijasida qishloq aholisi elektr bilan ta'minlandi. Aytish joiz, ushbu ezgu ishlar senator nazoratida homiylik asosida bajarildi.

**"Xalq so'zi".**

# ISHLAB CHIQARISHNING OQILONA MODELLARIGA O'TISH – BARQAROR RIVOJLANISH KAFOLATI

*Oliy Majlis Senatida "Barqaror iste'mol va ishlab chiqarish namunalarini ta'minlash: barqaror rivojlanishning majburiy talabi" mavzuida davra suhbati bo'lib o'tdi.*

## Davra suhbati

Ta'kidlanganidek, O'zbekistonda ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayonida yiliga 7 mln. tonna maishiy chiqindi hosil bo'ladi. Buning atigi 1,8 mln. tonnasi qayta ishlansa-da, qayta ishlash ulushi 21,9 foizdan 26 foizga oshgan. Respublikada hozirda 307 ta qayta ishlash korxonasi mavjud bo'lib, chiqindilardan 1,4 ming tonna mahsulot ishlab chiqarilmoqda.

2019 — 2021-yillarda aholi jon boshiga 1-3 xavfli toifadagi zaharli ishlab chiqarish chiqindilari hosil bo'lishi 13,1 kg.dan 8,5 kg.gacha kamaydi.

Rivojlanishi energiya tejash salohiyatini ro'yobga chiqarish chora-tadbirlari bilan hamroh bo'lgan elektr energetika sohasida samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning elektroenergetika sektorida oqilona ishlab chiqarish modelini shakllantirishning asosiy omillaridan biri sifatida qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish va elektr energiyasi ishlab chiqarishning solishtirma xarajatlarini kamaytirish asosida energiya quvvatlarini diversifikatsiya qilish vazifalari asta-sekin hal qilinmoqda.

Davra suhbatida barqaror iste'mol va ishlab chiqarish shakllariga o'tish, kimyoviy moddalar va boshqa chiqindilardan oqilona foydalanish hamda ularning atrof-muhitga chiqishini kamaytirish bo'yicha O'n yillik harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, davlat xaridlarida ekologik standartlarni qo'llashni kengaytirish, turizmni barqaror rivojlantirish, qazib olinadigan yoqilg'idan oqilona foydalanish va aholini tegishli ma'lumotlar bilan ta'minlash masalalari ham muhokama qilindi.

Shu jarayonda barqaror iste'mol va ishlab chiqarish modellariga o'tishni ta'minlash, chiqindilar hajmini hamda uning inson salomatligi va atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish, bu boradagi hamkorlikni yanada mustahkamlash yuzasidan taklif va tavsiyalar o'rtaga tashlandi.

**"Xalq so'zi".**

# MILLIY IFTIXOR VA G'URUR TIMSOLI

1

Albatta, dunyoda davlat bayroqlari ko'p, lekin biz uchun ular orasida O'zbekiston bayrog'i eng ko'rkam va chiroylisi. Negaki, u qalbimiz, ruhimizga tutashdir. Undagi har bir rang va tasvirda olam-olam ma'nolar mujassam. Masalan, bayroqdagi navqiron yarim oy tasviri milliy-tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq. 12 yulduz tasvirida o'zbek xalqi madaniyatining qadimiyligi, uning komillikka, o'z tuprog'ida saodatga intilishi ifoda etilgan.

Ma'lumki, 1991-yil 18-noyabr kuni "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 1992-yil 2-martda esa Birlashgan Millatlar Tashkilotida O'zbekiston bayrog'i ko'tarildi. Bugun u davlatimiz mustaqilligining jahoniy ifodasi, xalqimiz faxri, iftixori, orzu-umidining ramzi bo'lib hilpirab turibdi.

Davlat bayrog'i mamlakatimiz suverenitetining ramzi bo'lib, unda milliy davlatchiligimiz, mustaqil va mustahkam davlat barpo etish borasidagi ezgu g'oyamiz, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligimiz, orzu-maqsad va intilishlarimiz, or-nomusimiz aks etgan.

Turli bayram tantanalarida, mamlakatimiz a'zolari qatnashayotgan xalqaro miqyosdagi siyosiy, madaniy-ma'rifiy tadbirlarda, nufuzli sport musobaqalarida ham bayrog'imiz Vatanimizning sha'ni, xalqimizning g'ururini yorqin aks ettirmoqda.

Masalan, xalqaro sport bellashuvlarida g'alaba qozongan sportchilarimiz sharafiga yurtimiz bayrog'i baland ko'tarilgan lahzada har birimiz cheksiz hayajonga tushamiz, hech kimdan kam emasligimizdan faxrlanamiz.

Mag'rur hilpirayotgan bayrog'imiz yurtimizda hukm surayotgan tinchlik-obodlik, millatlararo totuvlik, qut-baraka, biz erishayotgan bemisl yutuqlar va kelajakka bo'lgan mustahkam ishonch ramzi sifatida qalbimizga tuganmas iftixor bag'ishlaydi.

Bugun Vatanimiz bayrog'i ozod yurt uzra hilpiramoqda. U bizni yurtimiz tinchligi va ravnaqi yo'lida birlashtirib, mamlakatimiz mustaqilligini hamisha ko'z qorachig'iday asrashga, buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lishga, yuksak ishonch va qat'iyat bilan kelajakka qadam tashlashga da'vat etib turibdi.

Har safar muqaddas bayrog'imizga boqib, o'tmishiyu kelajagi buyuk, osmoni musaffo, qalbi pok, beg'ubor, bag'rikeng, vujudidan hayotiy qudrat ufurib turgan hamisha navqiron, ozod xalqimizning ulug'vor chehrasini, ajdodlarimiz zakovatidan kuch olgan buyuk davlat qudratini his etamiz.

Shu o'rinda qayd etish joizki, joriy yil 7-iyul kuni "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu hujjat asosida davlat bayrog'idan foydalanish tartibi yanada soddalashtirildi hamda qonunga qat'iy rioya qilgan holda foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi.

Xususan, sport musobaqalarida, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarida, madaniy va o'zga ommaviy tadbirlarda, oilaviy bayramlarda, xotiraviy sanalarni bayram qilishda hamda boshqa hollarda Davlat bayrog'idan foydalanishga ruxsat berildi.

Davlat ramziga zarur hurmat bilan muomala qilgan holda undan va uning tasviri tushirilgan belgilardan jamoat joylari va binolarda, yashash yoki ish joylarida hamda ularga tutash bo'lgan hududlarda, transport vositalarining salonida foydalanish mumkinligi belgilandi.

Davlat organlarining ramzlarida va ularning rasmiy veb-saytlarida Davlat bayrog'ining tasviri tushirilgan belgilardan foydalanishning huquqiy asosi hamda bayroq tasvirini ustki kiyimga bezatish maqsadida aks ettirish imkoniyati yaratildi.

Ushbu o'zgarishlardan keyin fuqarolar bayrog'imizga hurmat saqlagan holda undan o'z xonadonlarida, ish joylarida erkin foydalanishi mumkin bo'ldi.

Umuman aytganda, ushbu hujjat Davlat bayrog'idan foydalanish imkoniyatini kengaytirishga, har bir inson ongu shuuriga Vatanimiz ramzlariga nisbatan chuqur hurmat tuyg'ularini singdirishga xizmat qiladi.

**Abdumalik AKROMOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

# QIZG'IN SUHBATLAR, UNUTILMAS TAASSUROTLAR

*Buxoro shahridagi 42-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi Janubiy Koreya ta'lim muassasalari bilan mustahkam aloqa o'rnatgan. Bu yerda salkam besh yildirki, o'quvchilarga koreys tilidan ham saboq beriladi. Bunda Toshkentdagi koreys tilini o'rganish markazining ko'magi katta.*

## Bilimlar almashinuvi

Bilim maskani rahbariyati shu markaz yordamida Janubiy Koreyaning Tegu shahridagi raqamli texnologiyalarga ixtisoslashtirilgan yuqori ta'lim maktabi bilan memorandum imzolagan edi. Yaqinda shu kelishuv doirasida maktab direktori Halima Nurullayeva va koreys tili o'qituvchisi Umida Nazarova yetakchiligidagi bir guruh o'quvchilar ushbu xorijiy davlatda bo'lib qaytishdi.

— O'n bir kun Koreya Respublikasida bo'lib, katta taassurotlar bilan qaytdik, — deydi muallima Umida Nazarova. — Tegu shahridagi yuqori ta'lim maktabining o'zida kichik innovatsion fabrika tashkil etilgan. Bu yerda o'quvchilar o'z g'oyalari asosida chiqindidan tamoman boshqa bir mahsulot tayyorlash bilan shug'ullanishadi. Tayyor buyumni esa onlayn usulda sotishadi. Ularga tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar yaqindan ko'maklashadi. Shu tariqa o'quvchi kreativ fikrlash sari yo'naltiriladi. Qolaversa, ixtirochilik qobiliyati bor yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi ham yaratilgan.

Safar davomida buxorolik o'quvchilar mashg'ulotlarda ishtirok etdi, koreys tilida so'zlashish qobiliyatlarini rivojlantirdi. Sunchon, Seul, Pusan kabi shaharlarda bo'lib, innovatsion festivallarda qatnashdi. Milliy madaniyatimiz, urf-odatlarimizni targ'ib etdi.

Kelgusi yilning bahorida Tegu yuqori ta'lim maktabi vakillarining Buxoroga kelishi ko'zda tutilgan.

**Istam IBROHIMOV**
**("Xalq so'zi").**

# O'ZBEKISTON — ITALIYA MUNOSABATLARIDA YANGI DAVR

*Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarellaning 9 — 11-noyabr kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lishi ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va ustuvor yo'nalishlarda o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston va Italiya o'rtasidagi uzoq yillik aloqalar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bu davlatga shu yilning 7 — 9-iyun kunlari amalga oshirgan tashrifi chog'ida sifat jihatidan yangi bosqichga, strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan edi.*

## Nuqtai nazar

Mazkur tashrif doirasida davlat rahbarlari huzurida ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan 11 ta davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo hujjatni almashish marosimi bo'lib o'tdi. Xususan, huquqiy masalalarda, sanoat mulki va qishloq xo'jaligi sohalarida hamkorlik qilish to'g'risidagi bitimlar shular jumlasidan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi bilan Italiya savdo agentligi o'rtasida restavratsiya sohasida, O'zbekiston madaniyat va san'atni rivojlantirish fondi va Italiya Respublikasi madaniyat vazirligi o'rtasida madaniyat sohasida hamkorlik to'g'risidagi memorandumlar, tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2023-2024-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi hamda 2026-yilga qadar madaniy almashinuvlar dasturi qabul qilindi.

Italiyada o'tkazilgan biznes-forum davomida jami 9 milliard yevrodan ziyod qiymatga ega investitsiyaviy bitimlar va savdo shartnomalari imzolandi. Amaliy hamkorlikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini hisobga olib, tomonlar texnologik va innovatsion sheriklik bo'yicha qo'shma loyihalarni ilgari surishga kelishib olishdi.

Hech mubolag'asiz, ushbu tarixiy kelishuvlar O'zbekiston — Italiya ko'p qirrali hamkorligini yanada rivojlantirishda yangi muhim davrning boshlanishi bo'ldi, desak, mubolag'a emas.

### Hamkorlikning asosiy yo'nalishlari

Aytish joizki, savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish ikki tomon uchun ham manfaatli bo'lgan asosiy yo'nalishlardan biridir. O'zaro savdo va investitsiyalar hajmi keyingi yillarda ikki barobar ko'paygani ham buni tasdiqlab turibdi. Metallurgiya, energetika, elektrotexnika va boshqa tarmoqlarda Italiyaning yetakchi kompaniyalari bilan sanoat kooperatsiyasi loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Keyingi yillarda o'zaro tovar ayirboshlash va qo'shma korxonalar soni ikki barobar ko'paydi. Yurtimizda Italiyaning "Pietro Fiorentini", "Terra-nova", "Danieli", "Imagro", "Ansaldo", "Saipem" kabi yetakchi kompaniyalari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Italiya O'zbekiston rahbarining Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini qaror toptirish va mustahkamlashga qaratilgan siyosatiga yuksak baho bermoqda. Mamlakat Bosh vaziri Jorja Meloni xonim O'zbekistonning Markaziy Osiyoda sheriklik, yaxshi qo'shnichilik va ishonch muhitini mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlab, "Italiya — Markaziy Osiyo" hamkorlik formatini yanada rivojlantirishga chaqirgani bejiz emas. Zero, bu format rasmiy Rimning mintaqa davlatlariga yaxlit organizm sifatida qarayotgani va bu yerda tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik ta'minlanishidan manfaatdorligini namoyish etadi.

Darhaqiqat, italiyalik hamkorlar mamlakatda demokratik institutlarni mustahkamlash, iqtisodiyotni liberallashtirish va diversifikatsiya qilish borasida olib borilayotgan izchil siyosatni yuksak baholaydi. Xususan, Italiyaning "Vision & Global Trends" xalqaro global tahlil institutining rahbari Tiberio Gratsiani fikricha, o'tkazilayotgan tub islohotlar va qabul qilingan yangilangan Konstitutsiyadan kuch olgan O'zbekiston o'zining ko'p tomonlama siyosatini, xususan, iqtisodiyot va moliya sohalarida izchillik bilan rivojlantirishga jiddiy intilmoqda. O'zbekiston butun Markaziy Osiyo mintaqasi va Yevropa o'rtasidagi hamkorlik nuqtayi nazaridan muhim davlat hisoblanadi, Italiya esa bu jarayonda asosiy ishtirokchilardan biri sanaladi. U texnologiyalar taqdim etish va iqtisodiy barqarorlikka yo'naltirilgan siyosatni ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini taklif etadi.

Ma'lumki, Italiya O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini 1992-yilning 10-yanvarida tan olgan va 24-martida diplomatik munosabatlar o'rnatgan. Ayni paytda Toshkentda Italiya elchixonasi, Rimda esa O'zbekiston diplomatik vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda. 2005-yilda Italiya parlamenti tashabbusi bilan Italiya — O'zbekiston Do'stlik va hamkorlik Assotsiatsiyasi tashkil etildi. 2011-yil 22-dekabrdan boshlab Oliy Majlisda "O'zbekiston — Italiya" parlamentlararo hamkorlik guruhi ish boshladi. Ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida muntazam siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazilmoqda. 2021-yil 8-dekabr kuni Toshkentda "Italiya — Markaziy Osiyo" shaklidagi ikkinchi vazirlar konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Shu bilan birga, O'zbekiston va Italiya o'rtasida iqtisodiy, siyosiy hamkorlik bo'yicha "aql markazlari" aloqalarining faollashishi ikki tomonlama munosabatlarni yanada chuqurlashtirish uchun "g'oyalar generatori" bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti va Italiya xalqaro tashkilotlar jamiyati o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumi imzolangani e'tiborga molik.

### O'zaro munosabatlardagi rivojlanish tendensiyalari

Italiya — O'zbekiston munosabatlaridagi jadal o'sish va izchil rivojlanish tendensiyalarini quyidagi raqamlarda ham ko'rsa bo'ladi. Ikki mamlakat o'rtasidagi tovar aylanmasi 2017-yilda 179,7 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 429,8 mln. AQSH dollariga yetgan. 2022-yil yakuniga ko'ra o'zaro savdo hajmi 32 foizga o'sib, 535,4 million yevroga yetdi va bu Italiyani O'zbekistonning Yevropadagi uchinchi yirik savdo hamkoriga aylantirdi.

Eksport tarkibiga, asosan, mato va iplar, paxta va quritilgan mevalar, xizmatlar kiradi. Import nomenklaturasi mexanik va elektr jihozlari, avtomobil qismlari, plastmassa buyumlari, farmatsevtika va to'qimachilik mahsulotlari, shuningdek, qurilish materiallaridan iborat. O'zbekistonda Italiya kapitali ishtirokida 50 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda, ulardan 14 tasida Italiya kapitali 100 foizni tashkil etadi. Asosiy faoliyat sohalari — alkogolsiz ichimliklar, sharob, shisha furnitura, parfyumeriya mahsulotlari, muzqaymoq, trikotaj mahsulotlari, xalq iste'moli mollari, paxta chiqindilarini qayta ishlash, savdo va savdo-vositachilik xizmatlari.

Italiya biznesining O'zbekistonga qiziqishi tobora ortmoqda. Keyingi yillarda respublikada Italiya kapitali ishtirokida konchilik, metallurgiya, neft-kimyo va elektrotexnika sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi yangi sohalarni qamrab olgan korxonalar soni ikki barobar oshdi. Natijada so'nggi to'rt yilda o'zlashtirilgan Italiya investitsiyalari hajmi yetti baravar ko'payib, 7,1 million dollardan 49,6 million dollarga yetdi. Keyingi bir necha yilda o'zaro savdo va investitsiyalar hajmi ikki barobar oshdi. Ayni paytda energetika, jumladan, qayta tiklanuvchi energetika, logistika, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarda amaliy hamkorlik qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, ikki tomonlama munosabatlar va ko'p tomonlama hamkorlikni, jumladan, "Italiya — Markaziy Osiyo" vazirlar uchrashuvlari formatida va xalqaro tashkilotlar doirasida mustahkamlab borish zarur. Savdo-iqtisodiy yo'nalishda Italiyaning yetakchi kompaniyalari bilan metallurgiya, qishloq xo'jaligi, qurilish materiallari tarmog'i va boshqa sohalarda muhim kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, umumiy qiymati qariyb 5 milliard dollarlik istiqbolli qo'shma loyihalar portfeli tayyorlanmoqda.

O'zbekiston va Italiya madaniyat, turizm, ta'lim sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish borasida ham katta salohiyatga ega. Ketma-ket uch yildirki, O'zbekiston Venetsiyadagi Xalqaro biyennaleda faol ishtirok etib kelmoqda. Yil boshidan mamlakatimizga kelayotgan italiyalik sayyohlar soni esa 5 barobar ko'paygan. Bunda joriy yil aprel oyidan boshlab Toshkent va Milan o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar yo'lga qo'yilgani muhim omil bo'lmoqda.

### Do'stlik va ishonch asosiga qurilgan sheriklik

Madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik 1997-yilda imzolangan madaniy va ilmiy hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo bitim asosida amalga oshiriladi. 1998-yil 15-sentabrdan Toshkentda "O'zbekiston — Italiya" Do'stlik jamiyati faoliyat ko'rsatmoqda.



**Italiya — Janubiy Yevropada, O'rta yer dengizidagi Apennin yarimorolida joylashgan. Yevropa Ittifoqi, NATO, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, "Katta yettilik", "Katta yigirmalik" a'zosi sifatida dunyo siyosatida katta ta'sirga ega qudratli mamlakatlardan biri. Yalpi ichki mahsuloti 2 trillion dollardan ortiq bo'lib, yuqori texnologiyalar, xizmat ko'rsatish, sanoat, qishloq xo'jaligi sohalarida katta tajribaga ega.**

**Shuningdek, Italiya jahon sivilizatsiyasining qadimiy beshiklaridan biri, umuminsoniy madaniy meros markazi, mumtoz rassom va shoirlarning bir necha avlodi uchun ilhom manbai bo'lgan betakror yurtdir.**



2014-yil dekabr oyida Italiyada kurash milliy assotsiatsiyasining tashkil etilishi va 2015-yilning aprel oyida birinchi konferensiyasining o'tkazilishi sport sohasidagi hamkorlik tarixida muhim voqea bo'ldi. Samarqanddagi "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida Italiya vakillari muntazam ishtirok etib kelmoqda. 2019-yil 25-mart kuni 2019 — 2021-yillarga mo'ljallangan hukumatlararo Madaniy hamkorlik dasturi imzolangan bo'lib, unda ta'lim sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, talabalar va abituriyentlarning grantlardan o'zaro foydalanishi, shuningdek, turizm, madaniyat va san'at, sport, arxeologiya, madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish, saqlash va muhofaza qilish sohasida muntazam almashinuvlar, arxivlar, kutubxonalar va nashriyotlar o'rtasida aloqalarni o'rnatish ko'zda tutilgan.

Ayniqsa, ta'lim borasida amalga oshirilayotgan hamkorlik aloqalari keng qamrovli. Ayni paytda mamlakatimizda Italiyaning eng nufuzli oliy ta'lim dargohlari — Turin va Piza universitetlarining filiallari mavjud. Shu yilning yanvarida esa O'zbekistonning Rimdagi elchixonasida Toshkent kimyo xalqaro universiteti (KIUT) va Italiyaning Yevropa dizayn universiteti (Universita Europea Del Design (UED) o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi. Mazkur hujjat doirasida KIUT va UED o'rtasida ta'lim sohasida o'quv dasturlarini amalga oshirish, professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvini yo'lga qo'yish, grafik va interyer dizayn mutaxassisliklarini Toshkent kimyo xalqaro universitetida qo'shma ta'lim dasturlari sifatida ochish singari o'zaro hamkorlik qirralari nazarda tutilgan.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan dizayn va moda sanoatini rivojlantirish hamda dunyo bozorida raqobatbardosh bo'la oladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha qo'yilgan qator vazifalar va ularning ijrosini ta'minlash maqsadida Yevropa dizayn universiteti ko'magida Toshkent kimyo xalqaro universitetida ushbu yo'nalishni rivojlantirish rejalashtirilgan. Universitetning moda va dizayn ta'limiga ixtisoslashgan xodim va o'qituvchilari "Gucci", "Prada", "Roberto Cavalli", "Fendi" va boshqa dunyoga mashhur kompaniyalarda dizayner sifatida ham faoliyat yuritishadi. Shu bilan birga, mazkur kompaniyalar bilan hamkorlikda yangi mahsulotlar, ishlanmalar va texnologiyalar yaratish bilan shug'ullanishadi.

Hozirgi kunda faoliyati yo'lga qo'yilgan oliy o'quv yurtlari filiallari qatorida yaqin orada Buxoro shahrida Luidji Vanvitelli nomidagi Kampaniya universiteti filiali (2023-2024-yillar, arxitektura, muhandislik, tibbiyot), "Italian Universities Campus" (Italiya universitetlari kampusi, 2024-yildan boshlab) faoliyat ko'rsata boshlashi rejalashtirilgan.

Aytish joizki, Italiya Prezidentining yurtimizga tashrifi mobaynida erishilgan kelishuvlar savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga, biznes uchun qulay sharoitlar yaratishga, qo'shma loyihalarni moliyalashtirishning moslashuvchan mexanizmlarini joriy etishga, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Boz ustiga, Italiya ishbilarmonlari energetika, gaz-kimyo va neft-gaz tarmog'i, metallurgiya, kimyo, to'qimachilik sanoati va qishloq xo'jaligida katta kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishga tayyor.

Jahon iqtisodiyotidagi jiddiy tebranishlar va global yetkazib berish zanjirlari buzilishi sharoitida ishonch va hurmat tamoyillariga asoslangan konstruktiv, ochiq muloqot har doimgidan ham muhim. O'zbekiston Italiya biznesiga yurtimizda faoliyat yuritishi uchun keng qo'llab-quvvatlash choralari va samarali maydon taqdim etmoqda.

Darvoqe, bugun yurtimizda har qanday mamlakat biznesi rivoji uchun barcha sharoit yaratilgan. Barqarorlik, ishonchli kafolatlar, qulay investitsiya muhiti ta'minlangan. O'zbekistonning boy tabiiy resurslari va malakali kadrlarini Italiyaning texnologik va sanoat salohiyati bilan birlashtirishdan hosil bo'ladigan sinergiya qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni birgalikda ishlab chiqarish, ularni uchinchi mamlakatlar bozoriga eksport qilish imkonini beradi. Shu ma'noda, energetika, oziq-ovqat, to'qimachilik sanoati, qishloq xo'jaligi, kimyo, avtomobilsozlik, elektrotexnika va ko'plab boshqa sohalar hamkorlik uchun istiqbolli.

Italiya tadbirkor va sarmoyadorlarida O'zbekistonda o'zaro manfaatli qo'shma loyihalarni amalga oshirish, bunda yuqori texnologiyalar va innovatsion yechimlarni joriy qilish bo'yicha aniq taklif va rejalar mavjud. Masalan, davlatimiz rahbari tashrif buyurgan Lombardiya viloyati bilan hududlararo hamkorlik dasturlarini kengaytirish, O'zbekistonda gaz taqsimoti tizimini va Toshkent shahrida elektr taqsimot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, Toshkent issiqlik elektr stansiyasini texnologik jihatdan qayta jihozlash, bir qator zavodlar qurish, jumladan, chiqindilarni yoqish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish, kaliy xlorni tozalash, kaliy gidroksidi, qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish, za'faron plantatsiyalarini kengaytirish, "O'zmetkombinat" AJ ishlab chiqarish quvvatini oshirish, Turin politexnika universiteti bilan birgalikda Italiya texnologiya va innovatsiyalari markazini tashkil etish va boshqa loyihalar ustida ish olib borilyapti.

Muxtasar aytganda, O'zbekiston ham, Italiya ham o'zaro samarali munosabatlarni yuksak qadrlaydi. Mamlakatimizda o'tkazilgan muzokaralar va imzolangan hujjatlar o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**To'lqin TESHABOYEV,**
**Toshkent moliya instituti rektori,**
**iqtisodiyot fanlari doktori, professor.**

---

**Umummilliy harakat**

# SENATOR BOSHCHILIGIDA 500 MINGGA YAQIN KO'CHATLAR O'TQAZILDI

*Xabaringiz bor, davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan turizm va madaniyat maskanlari imkoniyatini to'liq ishga solish, "Yashil makon" umummilliy loyihasining kuzgi mavsumini tashkil etish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida chiqindi poligonlari atrofida va yirik sanoat korxonalari hududida "yashil belbog'" yaratish, dala chetlarida, barcha korxona, tashkilot va muassasalar hududida ko'chatlar ekish zarurligi ta'kidlangan edi.*

Shu munosabat bilan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida o'tkazilayotgan ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlariga Oliy Majlis Senati a'zolari ham o'zlarining munosib hissasini qo'shmoqda.

Xususan, Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi a'zosi Abdullo Xursanov boshchiligida Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida daraxt ko'chatlarini ekish aksiyasi tashkil etildi. Muhimi, shu jarayonda 68 gektar maydonga 476 ming tup turli mevali va manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazildi.

**"Xalq so'zi".**

# HAMJIHATLIK MUSHTARAK MAQSADLAR RO'YOBIGA XIZMAT QILADI

*Avval xabar qilinganidek, shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida poytaxtimizdagi ijtimoiy soha obyektlari, xususan, umumta'lim maktablari, tibbiyot muassasalari va mahallalarda bo'lib, aholi bilan uchrashuvlar o'tkazmoqda.*

Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek, Yakkasaroy, Sergeli, Yunusobod, Mirobod tumanlari aholisi bilan muloqotlar chog'ida keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'rifiy-ma'naviy, tibbiy va ekologik sohalarda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar mazmun-mohiyati haqida batafsil ma'lumot berildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilab berilgan ustuvor maqsadlar ijrosi, shuningdek, parlamentda qabul qilinayotgan qonunlarning ahamiyati hamda bugungi kunda poytaxtimizda ro'yobga chiqarilayotgan bunyodkorlik ishlari haqida atroflicha so'z yuritildi.

— Keng jamoatchilik vakillari bilan muloqotlarda ko'p savollar yaqinda quyi palatada qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun haqida bo'ldi, — deydi Qonunchilik palatasi deputati Mavjuda Hasanova. — Ushbu hujjat haqida yig'ilganlarga batafsil tushunchalar berdik. Aralash saylov tizimining ahamiyatli jihatlari, bu amaliyot parlamentning keyingi chaqirig'iga tatbiq etilishi yuzasidan batafsil to'xtalib, bu haqda aholining qay darajada xabardorligi bilan qiziqdik. Amin bo'ldikki, ko'pchilik qonunning asl mohiyatidan bexabar. Shu bois biz, deputatlar uni aholi o'rtasida yanada ko'proq targ'ib qilishimiz maqsadga muvofiq. Chunki ushbu qonun mamlakatimiz ertangi kuni, farzandlarimiz kelajagi, qolaversa, har birimizning farovon hayotimiz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, bunga loqayd qaramasligimiz kerak.

Ma'lumki, so'nggi paytlarda yurtimiz qator nufuzli xalqaro tadbirlarga mezbonlik qilayotgani, ularda dunyoning yetakchi mamlakatlari davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etayotgani O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o'rni yuksalib borayotganini ko'rsatadi.

Samimiy muloqotlarda nuroniylar, mahalla faollari bu haqdagi ma'lumotlarni katta qiziqish bilan tingladi. Yig'ilganlar 8-9-noyabr kunlari poytaxtimizda Prezidentimiz raisligida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 16-sammiti yuqori darajada o'tkazilgani, unda ilgari surilgan muhim tashabbuslar qo'llab-quvvatlanganini faxr bilan tilga olishdi. Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ochiq va amaliy, faol tashqi siyosat alohida e'tirof etildi.

Uchrashuvlarning "Yashil makon" umummilliy harakati doirasida tashkil etilayotgani bejiz emas. Bu deputatlarning aholi bilan munosabatlarini yanada yaqinlashtirish barobarida barchani mushtarak maqsadga — hamjihatlikda hududlarda "yashil bog'lar" va "yashil jamoat parklari" barpo etishda munosib ulush qo'shishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Muloqotlardan so'ng Qonunchilik palatasi deputatlari nuroniylar, mahalla faollari, mahalliy Kengash deputatlari hamda yoshlar bilan birgalikda Toshkent shahridagi qator umumta'lim maktablari, mahallalar, tibbiyot muassasalari hududida mevali va manzarali ko'chatlar ekdi.

**"Xalq so'zi".**

# INSON MANFAATLARI USTUVORLIGIGA UYG'UN FAOLIYAT

1

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati va "Navoiyuran" davlat korxonasi jamoalariga yo'llagan tabrigini Bosh vazir Abdulla Aripov o'qib eshittirdi.

Shundan so'ng ko'p yillik samarali hamda fidoyi mehnatlari uchun davlatimiz rahbari Farmoniga ko'ra, Vatanning yuksak unvon, orden va medallariga sazovor bo'lgan "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Navoiyuran" DK, "NKMK jamg'armasi" DM geolog hamda muhandislari, ishchi-xizmatchilari va xodimlariga mukofotlar tantanali ravishda topshirildi.




## So'z — tadbir ishtirokchilariga

**Yuldash GANIYEV,**
**"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Markaziy kon boshqarmasi markaziy ta'mirlash-mexanika sexi boshlig'i, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi:**

— 31 yildan buyon kombinat tizimida mehnat qilaman. Keyingi yillarda mamlakatimizda juda ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Shu jihatdan o'tgan yil samarasiga birgina korxonamiz misolida nazar solsak, asrlarga tatigulik yangilanishlarning guvohi bo'lishimiz mumkin. Men mehnat qilayotgan Markaziy kon boshqarmasi hissasiga kombinat ishlab chiqarish quvvatining katta qismi to'g'ri keladi. Boshqarmamiz tarkibida yirik investitsion loyihalar asosida yangi zavodlarning qurilishi uning quvvatini yanada oshirdi.

Chunonchi, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan 5- va 7-gidrometallurgiya zavodlari, 2-gidrometallurgiya zavodining yiliga 12 million tonna ma'danni qayta ishlash quvvatiga ega ikkinchi navbati foydalanishga topshirilgani hamda "Muruntov" konida olib borilayotgan ishlar bunga yaqqol misoldir.

2017-yilning mart oyida Prezidentimiz Navoiy viloyatiga tashrifi chog'ida istiqbolli loyihalardan biri — "Auminzo-Amantoy" koni negizida 5-gidrometallurgiya zavodini barpo etishga start bergan edi. Kombinat quruvchi va mutaxassislari sa'y-harakati bilan mazkur zavod muddatidan oldin, g'oyat qisqa fursatda ishga tushirildi. Ayni paytda kislorodli-ohakli ishlov berish texnologiyasini qo'llash orqali ushbu zavodda yiliga 5 million tonna ruda qayta ishlanmoqda.

Malakali mutaxassislar bilan bir safda yoshlar zamonaviy texnologiyalarni mahorat bilan boshqarmoqda. Izlanish hamda intilishlarimiz natijasida erishilayotgan yutuqlar hali marra emas. Shu ma'noda, men bugungi mukofotni e'tirof bilan birga, yuksak ishonch va mas'uliyat, deya qabul qildim.

**Xayrulla AHADOV,**
**"Navoiyuran" davlat korxonasi bosh geologi, "Do'stlik" ordeni sohibi:**

— Konchi hamda geologlar oldiga qo'ygan vazifalar nihoyatda mas'uliyatli. Boisi insoniyat bugun intellektual qimmatliklar, innovatsion yangilanishlar davriga qadam qo'ydi.

Mana shunday salohiyat hamda qudratga ega xalqimiz azmu shijoati bilan jonajon Vatanimiz jahon konchiligida birinchi o'nlikdan joy egallab turibdi. Biz o'tmishimiz bilangina emas, bugunimiz bilan ham faxrlanamiz.

Prezidentimizning 2022-yil 14-iyuldagi "2022 — 2030-yillarda "Navoiyuran" davlat korxonasida uranni qazib olish, qayta ishlash hajmlarini oshirish hamda uni transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 2030-yilga qadar respublikamizda uran mineral xomashyosi bazasini 100 ming tonnaga yetkazish, tabiiy uran mahsulotini ishlab chiqarish hajmini ikki baravar, ammoniy perrenatini 1,7 barobarga oshirish vazifalari belgilangan. Bu sharafli vazifalarning ijrosi, albatta, ta'minlanadi.

Bayramning badiiy qismida san'at ustalari hamda viloyat badiiy havaskorlik dastalari ijrosida katta konsert dasturi namoyish etildi. Turli millat hamda elat tillarida yangragan sho'x navolar, har bir qo'shiq va raqs ruhidagi qutlov hamda iftixor dillarga olam-olam g'urur hislarini jo ayladi, desak, aslo mubolag'a emas.

Ayniqsa, davlatimiz rahbarining tegishli Farmoniga binoan yuksak mukofot bilan taqdirlanganim menga juda katta xursandchilik baxsh etdi. Albatta, biz, konchilar vazifamizga yanada mas'uliyat bilan yondashib, yurtimiz ravnaqi yo'lida sidqidildan mehnat qilishda davom etaveramiz.

**Maya SOY,**
**"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Shimoliy kon boshqarmasi budjetlashtirish va kontrolling bo'limi boshlig'i, "Do'stlik" ordeni sohibi:**

— Kombinat tizimiga ishga kirganimga qirq yildan oshdi. Bu bugun nishonlanayotgan sananing yarmidan ko'pini tashkil etadi. Shu o'tgan davrda korxonamiz yildan-yilga quvvatlarini oshirish bilan birga, ijtimoiy sohada ham qator yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Men mehnat qilayotgan boshqarma Uchquduq shahri — Qizilqum shimolida joylashgan. Mamlakatimiz rahbarining g'amxo'rligi tufayli cho'lning injiq tabiati, yozning jaziramasiyu qishning rutubatini his etmaymiz. Farzandlarimiz uchun maktab, maktabgacha ta'lim muassasalari, sport hamda madaniyat saroylari, istirohat bog'lari qurilmoqda.

Qisqacha aytganda, inson manfaatlari ustuvor tutilib, har qadamda buni his etamiz. Vatanimizning yuksak mukofoti bilan taqdirlanganim Qizilqum kengliklarida mehnat qilayotgan har bir yurtdoshimiz zahmatiga berilgan yuksak ishonch, deb qabul qilaman. Albatta, bu e'tibor jamoamiz oldiga qo'yilgan vazifalarni uddalashda biz, konchilarga qanot bo'ladi.

**Temur ESHBOYEV,**
**Azamat ZARIPOV**
**("Xalq so'zi") yozib oldi.**

# XAVFSIZ KELAJAK, SOG‘LOM SAYYORA — DUNYO BOLALARIGA

*Bu dunyoda inson zoti borki, bolam-chaqam deb yashaydi, o‘z zurriyotining qorni to‘yib ovqat yeyishi, usti but bo‘lishi, yaxshi yashashi uchun mehnat qiladi, uning boshqalardan kam bo‘lmasligi, o‘ksimasligi uchun barcha sharoitni qilib berishga intiladi. Nainki inson, parrandayu darrandadan tortib jamiki tirik mavjudot, hatto qo‘ng‘iz ham o‘z jigargo‘shasini oppog‘im deydi.*

*Lekin, ming afsuslar bo‘lsinki, dunyoda ro‘y berayotgan talotumlar, xunrezliklar, qirg‘inbarotlar qurboni birinchi galda begunoh ayollar va bolalar bo‘layotgani global fojiaga aylanib bormoqda. Buning ustiga, iqlim o‘zgarishlari, sanoat korxonalaridan chiqayotgan zaharli gazlarning muttasil ravishda atmosferani qoplab borayotgani, havoning ifloslanish darajasi oshayotgani sayyoramiz kelajagi bo‘lgan bolalarning ertangi kunini, hayotini xavf ostiga qo‘ymoqda.*

*Shuning uchun butun dunyoda bolalar sog‘lom va xavfsiz ulg‘ayishlarini ta’minlash maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1954-yilda maxsus rezolyutsiya ishlab chiqildi va 1956-yildan boshlab 20-noyabr — Butunjahon bolalar kuni, deb e’lon qilindi. 1959-yilda esa Bola huquqlari haqidagi Deklaratsiya, 1989-yilda Bola huquqlari to‘g‘risida Konvensiya qabul qilinib, 96 davlat tomonidan ratifikatsiya qilindi. BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga binoan a’zo davlatlarning majburiyatlarini har tomonlama ifoda etish orqali ertamiz egalarining yaxshi yashashi, har tomonlama rivojlanishi, toza, sog‘lom va barqaror muhitga bo‘lgan huquqini bevosita tasdiqladi.*

## Umuminsoniy qadriyatlar

### Bolajon O‘zbekiston

BMTga a’zo davlatlar tomonidan Butunjahon bolalar kunining nishonlanishi tabiatni asrash, butun dunyo bolalari uchun qulay va xavfsiz muhit yaratish, ularning huquqlarini rag‘batlantirish, himoya qilish borasidagi sa’y-harakatlarni birlashtirishga xizmat qiladi.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar atrof-muhitga zarar yetkazuvchi manbalar, qazilma boyliklardan foydalanishdan bosqichma-bosqich voz kechishni tashkil etishga chaqirilgan. Shuningdek, ekologik qarorlar qabul qilishda bolalarning fikr-mulohazalarini inobatga olish zarurligi, bu borada ekologik ta’limning ahamiyati ta’kidlangan.

Ushbu davlatlar o‘tgan yillar davomida qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish, havo sifatini yaxshilash va toza suvdan foydalanish imkoniyatini ta’minlash, sanoat, qishloq xo‘jaligi va baliqchilikda sog‘lom va barqaror ishlab chiqarishni tashkil etish, oziq-ovqat va biologik xilmaxillikni himoya qilish borasida berilgan tavsiya va qo‘llanmalar asosida ish olib bormoqda.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga 1992-yil 9-dekabrda a’zo bo‘lgan O‘zbekiston ushbu hujjat talablariga qat’iy rioya etib kelmoqda. Mamlakatimizda bolalarni himoya qilish, ularni qo‘llab-quvvatlash, haq-huquqini ta’minlash, sog‘lig‘ini mustahkamlash davlat siyosatining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Keyingi yillarda bolalar aynan ta’lim-tarbiya oladigan oila, maktabgacha va maktab ta’limi muassasalariga e’tibor davlat siyosatining bosh masalasiga aylandi.

Mamlakatimizda bola huquqlarini himoya qilish va kafolatlashning huquqiy asoslari yaratilgan. Ularning mazmun-mohiyatini bola huquqlari himoyasi borasidagi milliy va umuminsoniy g‘oyalar tashkil etadi.

### Ayanchli taqdirlar, begunoh jabrdiydalar

BMT rasmiy saytidagi ma’lumotlarga ko‘ra, dunyodagi har beshinchi bola o‘ta qashshoqlikda yashaydi. Kuniga ikki dollardan kam daromad topadigan bir milliardga yaqin insonlarning teng yarmi bolalarga to‘g‘ri keladi.

Butun dunyoda iqlim inqirozi uchun eng kam javobgar va uning oqibatlaridan eng ko‘p jabr ko‘radigan bolalar toifasi hisoblanadi. Har yili besh yoshgacha bo‘lgan 1,7 million bola atrof-muhitning oldini olish mumkin bo‘lgan zararidan vafot etadi. Ifloslangan havo har yili 600 mingdan ziyod bolalarning hayotiga zomin bo‘lmoqda. Yuz millionlab bola xavfsiz ichimlik suvi va to‘yib ovqatlanish imkoniyatidan bahramand bo‘la olmayapti. Dunyo bolalari o‘zining rivojlanish jarayonlariga ziyon yetkazayotgan va hayotiga zomin bo‘layotgan qo‘rg‘oshin va simob kabi toksik kimyoviy moddalar ta’siriga tushib qolmoqda.

Tadqiqotlarga qaraganda, so‘nggi yarim asrdan ko‘proq o‘tgan vaqt mobaynida anomal issiqlik to‘lqini 7-marta, o‘rmon yong‘inlari ikki barobar, qurg‘oqchilik qariyb uch barobar ko‘paygan. Qisqacha aytganda, bolalar iqlim o‘zgarishlarining begunoh qurbonlariga aylanmoqda.

To‘yib ovqatlanmaslik tufayli har yili 150 million nafarga yaqin bola jismoniy nogironlikka giriftor bo‘lmoqda. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ta’lim sohasida erishilgan sezilarli yutuqlarga qaramay, Yer yuzidagi 175 milliondan ortiq bola maktabgacha



Sirojiddin VOHIDOV olgan surat.

ta’limdan mahrum. Qurolli mojarolar, urush xavfi va bolalar mehnatidan noqonuniy foydalanish juda ko‘p muammolarni keltirib chiqarmoqda. Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarida 200 millionga yaqin bola ekologiya va atrof-muhit bilan bog‘liq turli tahdidlardan aziyat chekmoqda.

Hozirgi kunda dunyodagi 5 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan 153 millionga yaqin bolalar mehnat qilishga majburlanayotgani o‘ta tashvishli hol. Garchi ko‘pchilik rivojlangan davlatlarda bolalar manfaatlari har tomonlama himoya qilinayotganiga qaramay, aksariyat qoloq davlatlarda bolalarning og‘ir hayoti, ularning ayanchli taqdiri bu borada hal etilishi lozim bo‘lgan o‘ta muhim muammolar hali-beri tugamaganini anglatadi.

### Har bir davlat daxldor va mas’ul

BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi Germaniyadagi “Terre des Hommes” kompaniyasi bilan birgalikda ishlab chiqilgan “Iqlim o‘zgarishi masalasiga alohida e’tibor qaratgan holda bolalar huquqi va atrof-muhit to‘g‘risidagi 26-sonli umumiy tartib sharhi” nomli yo‘riqnomada keltirilishicha, davlatlar bolalarning huquqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri zararlardan himoya qilish uchungina emas, balki zararli harakatlari yoki harakatsizligi oqibatida ularning huquqlari buzilishiga ham javobgar.

Hujjatni ishlab chiqishda 11 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan 12 nafar bolalar maslahatchisidan iborat guruh qatnashdi. BMTning bolalar jamg‘armasi (UNICEF) ham maslahatlashuv jarayoni orqali butun dunyo bo‘ylab bolalarning fikrlarini to‘plashga yordam berdi. Ushbu hujjatda davlatlar nafaqat o‘z chegaralari doirasida, balki o‘z chegaralaridan tashqarida ham atrof-muhitga yetkazilgan zarar va iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlari uchun javobgar bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlardan BMT qo‘mitasiga bolalarning ekologik huquqlarini himoya qilish borasidagi yutuqlari haqida vaqti-vaqti bilan hisobot berishlari talab etildi.

> ***“Bola huquqlarini ta’minlash masalasi O`zbekiston uchun doim ustuvor maqsadlardan biri bo`lgan. O`tkazilgan konstitutsiyaviy islohotlar doirasida mamlakatimiz Asosiy Qonuniga bolalar huquq va manfaatlarini ta’minlash kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan yangi ilg`or normalar kiritildi. Yangilangan Konstitutsiyamizda bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, ularning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to`laqonli rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo`yicha kafolatlar kuchaytirildi, bu borada davlat majburiyatlari kengaytirildi.”***

26-sharh Parij kelishuvi bo‘yicha davlatlarning iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashda bolalar huquqlarini hurmat qilish, ilgari surish va hisobga olish majburiyatini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, u bola huquqlariga ta’sirni hisobga olish atrof-muhitga oid barcha qonun hujjatlari, strategiya va loyihalar, qoidalar, budjet yoki boshqa qarorlarga nisbatan amalga oshirilishi kerakligini aniq ko‘rsatib beradi.

UNICEFning bolalar huquqlari va iqlim bo‘yicha maxsus maslahatchisi Paloma Eskuderoning ta’kidlashicha, iqlim sohasi bo‘yicha moliyalashtirish siyosatida bolalarning ehtiyojlarini hisobga olmaslik davom etmoqda, tabiiyki, bu navqiron avlod kelajagi uchun g‘oyat xatarli. Bunday sharoitda sayyoramizdagi har bir davlat iqlim o‘zgarishiga, bolalarning ta’lim olish huquqini, xavfsiz suv va sog‘lom atrof-muhitni ta’minlash kabi chora-tadbirlarga ustuvor ahamiyat berishi maqsadga muvofiq. Barcha davlat bu muammoga eng kam hissa qo‘shayotgan, lekin xavfli suv toshqinlari, qurg‘oqchilik va bo‘ronlardan aziyat chekayotgan mamlakatlarda yashovchi o‘g‘il-qizlarning huquqlarini himoya qilishga mas’ul.

### Ekologik muammolarga qarshi kurashning jajji ishtirokchilari

Mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash dasturida inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari qatorida ta’lim tashkilotlarining tegishli o‘quv rejasiga “yashil” iqtisodiyot mavzusini kiritish ko‘zda tutilgan. Bunda tegishli ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga mavjud fanlar doirasida “yashil” iqtisodiyot amaliyoti va tamoyiliga oid mavzular ham o‘tiladi.

Shu asosda yurtimizda ekologiya faollari va “Eco-schools Uzbekistan” loyihasi a’zolari tomonidan Milliy strategiya tashabbusi ilgari surildi. Maktabgacha va maktab ta’limi, Yoshlar siyosati va sport vazirliklari tomonidan O‘zbekiston barqaror rivojlanish madaniyatini yuksaltirish va iqlim masalalari bo‘yicha kun tartibiga yoshlarni jalb qilish bo‘yicha milliy strategiya hamda yo‘l xaritasi qabul qilindi. Bularning hammasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda bolalar va yoshlarning ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi.

UNICEFning yurtimizdagi vakolatxonasi rahbari Munir Mamedzadening ta’kidlashicha, ushbu hujjatni garchand vazirlar imzolagan bo‘lsa-da, uni ishlab chiqishda bolalarning o‘zi ham qatnashgan. Shu ma’noda, ushbu strategiya navqiron avlodning iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashdagi rolini e’tirof etadi, sohadagi faol ishtirokini ta’minlaydi. Ularni o‘quv jarayonida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish va mavjud muammolarga yechim izlashga yo‘naltiradi. Qisqacha aytganda, ushbu strategiya bolalar va yoshlar uchun jamiyat farovonligi, barqarorligiga hissa qo‘shadigan istiqbolli rivojlanish qo‘llanmasi bo‘ladi.

Yoshlar strategiyasining asosiy maqsadlari “yashil” ta’limni rivojlantirish bo‘yicha milliy siyosat va harakatlar rejasini ishlab chiqish, turli manfaatdor tomonlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish hamda maktabgacha va maktab ta’lim muassasalarida “yashil” jamiyatni yaratishdan iborat. Shuningdek, sifatli ekologik ta’limning uzluksizlik, fanlararolik, fundamentallik, murakkablik kabi birlamchi tamoyillari “yashil” ta’lim tizimi va barqaror rivojlanish uchun asos yaratadi.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, Orol fojiasining salbiy oqibatlarini kamaytirish hamda “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish bilan bog‘liq istiqbolli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston tomonidan Jahon ekologik xartiyasini ishlab chiqish g‘oyasi ilgari surildi.

Yaqinda Jahon banki tomonidan O‘zbekistonga iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash uchun ajratilgan grant mablag‘lari ham barqaror kelajakka ko‘maklashish va global ekologik muammolarni hal etishda yoshlarning faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi.

### Insonparvarlik tamoyillari

2022-yilning o‘rtalarida bo‘lib o‘tgan BMT Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasining 91-sessiyasida O‘zbekistonning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya qoidalarini bajarishi yuzasidan Beshinchi davriy hisoboti ko‘rib chiqildi. Sessiyada O‘zbekistonda Konvensiya qoidalarining moddama-modda amalga oshirilishi, milliy qonunchiligimizga kiritilgan o‘zgartirishlar, jamiyatda bolalar mavqeini yuksaltirish borasida erishilgan yutuqlar, mamlakatimizda yosh avlodni himoya qilishning milliy mexanizmi yaratilgani haqida ma’lumot berildi.

Bola huquqlarini ta’minlash masalasi O‘zbekiston uchun doim ustuvor maqsadlardan biri bo‘lgan. O‘tkazilgan konstitutsiyaviy islohotlar doirasida mamlakatimiz Asosiy Qonuniga bolalar huquq va manfaatlarini ta’minlash kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan yangi normalar kiritildi. Yangilangan Konstitutsiyamizda bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, ularning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha kafolatlar kuchaytirildi, bu borada davlat majburiyatlari kengaytirildi.

Mamlakatimizda bolalar huquqlarini ta’minlashga doir 40 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, mazkur normativ¬-huquqiy hujjatlar “Bolaning eng yaxshi manfaatlari” tamoyilini hayotga joriy qilishga qaratilmoqda.

Endilikda bolalarni 13 yoshdan jinoiy javobgarlikka tortish bekor qilinib, bu 14 yosh etib belgilandi. Voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so‘roq qilishda pedagog bilan bir qatorda, psixolog ham qatnashishi ko‘rsatildi.

2023-yil 11-aprelda qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritilib, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarga jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish tariqasidagi insonparvarlik aktlari tatbiq etilmasligi belgilanib, bunday jinoyatlar uchun jazo choralari yanada og‘irlashtirildi.

Muxtasar aytganda, bola huquqlari kafolatlarini yanada takomillashtirish yo‘lida olib borilayotgan islohotlar mamlakatimizda inson qadri e’tirofi, navqiron avlodga yuksak g‘amxo‘rlik ifodasidir.

**Nurulloh OSTONOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

---

# IBRAT KITOBI

*O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi Temur Shirinov qalamiga mansub “Umid ila... intildim” kitobini qo‘limga oldimu qiziqib qoldim, qo‘ymay ikki kunda o‘qib chiqdim. Undagi voqealar meni o‘ziga go‘yo ohanrabodek tortib ketdi...*

## Mutolaa




“Yetti otamni surishtirsam, barchasi oddiy odamlar...” deb yozadi muallif. Ana shu “oddiy odamlar”ning o‘g‘li Temur Shirinov bugun yetuk qadimshunos, tarix fanlari doktori, professor, xalqaro darajada e’tiroflarga sazovor bo‘lgan olim.

“Umid ila... intildim” kitobining tili sodda va xalqchil. Muallif chinakam yozuvchi, adibday erkin qalam tebratadi. U go‘yo o‘quvchi bilan samimiy suhbat olib boradi. Kitob maroq bilan, bamisli romandek o‘qiladi, o‘quvchini zeriktirmaydi. Bu ulkan hayotiy materialni, ipning uchini yo‘qotmay, tartibi bilan jamlash, har bir voqeani o‘z o‘rnida me’yorda qog‘ozga tushirish, bir-birini to‘ldirib borish va natijada yaxlitlik, butunlikka erishish uchun muallifdan sinchkovlik, katta ijodkorlik salohiyati talab qilinadi.

Muallif bir bobda “...rost gaplarni yozdim” deya e’tirof etadi va kitobda shu tamoyilga amal qiladi, har kimlarga (jumladan, yaqin qarindosh-urug‘larga) nisbatan qattiq botadigan gaplarni rostlik yo‘lini tutib, yumshoqlik bilan aytib o‘tadi.

Bu yerda muallif muhim va nozik masalani tilga oladi: “Samarqandda bir oila vakillari, — deb yozadi u, — o‘z shajaralarini ota tomonidan Maxdumi A’zam, ona tomonidan Xoja Ahror Valiy hazratlariga borib taqaladi, degan katta da’vo bilan chiqdilar. Kibrlanish, kattazanglik paydo bo‘ldi... Ular o‘zlariga alohida hurmat-e’tibor talab qila boshladilar...”

Olim bunday nosog‘lom jarayon millatning bir necha ijtimoiy qatlamlarga bo‘linib ketishiga, sinflashuviga, tabaqalanishiga olib kelishi xavfi haqida to‘g‘ri mulohazalar yuritadi. Uning millatimizda arimas dardlardan bo‘lib kelayotgan xavfli “mahalliychilik” g‘oyalari haqida bildirgan fikrlari nihoyatda dolzarb. Bizlarda ibrat bor: nega sohibqiron Amir Temur o‘z saltanatining poytaxti qilib ona shahri Shahrisabzni tanlamadi, balki Samarqandni saltanatning bosh shahriga aylantirdi? Shu yo‘sinda u mahalliychilikka yo‘l bermadi-ku! Bu millatni, yurt taqdirini teran o‘ylashga yorqin misol.

Hayotda yo‘llar ko‘p. Forishning kichkinagina, tog‘ bag‘ridagi adirlikda joylashgan, buloq suvining hamisha to‘rttagina qamish o‘sib turadigan xalqob yerida, shundan nomi “Qamish” bo‘lib ketgan qishloqda, oddiy oilada tug‘ilib unib-o‘sgan Temur Shirinov tinib-tinchimay, evrilib-chevrilib hayotda to‘g‘ri va adolatli yo‘l tutganidan shunday muvaffaqiyatlarga erishdi. Albatta, barining manbai — izlanish, mehnat, yana mehnat...

To‘g‘ri va adolatli yo‘l qaysi? Bu — halol mehnat qilish, og‘rinmay ter to‘kish, o‘rganish, izlanish, birovga yordam berish, zinhor xalal bermaslik, muhtojni qo‘llash, xalqi, millati, Vatani, uning buyuk tarixi bilan faxrlanish tuyg‘usidir.

“1994-yili Parijda xizmat safarida edim, — deb yozadi olim. — Shaharning Fontenua maydonida joylashgan UNESCO qarorgohiga borishga to‘g‘ri keldi. Maydonda dunyoning yuzlab mamlakatlari bayroqlari osilgan. Tabiiyki, men, hayajon bilan ular qatorida yurtimiz bayrog‘ini qidirdim. Bayroqlar tig‘iz joylashtirilgani bois ularni farqlash qiyin edi. Shamol yo‘q, bayrog‘imizning bir chekkasi elas-elas ko‘rinib turibdi, lekin shumikin, deya ikkilandim. Uzoq vaqt maydondan keta olmadim. Va nihoyat shamol esib, bayrog‘imiz hilpiradi. Parijda O‘zbekiston bayrog‘i... G‘urur va hayajondan o‘zimni yo‘qotib qo‘yay deganman...”

Olimning o‘z hayotidan, safarlaridan, odamlar bilan qilgan muloqotlaridan, o‘qib-o‘rganganlaridan chiqargan xulosalari nihoyatda hayotiy. Ular o‘quvchini ishontiradi va muallifga hurmatni oshiradi.

Temur Shirinov o‘z kitobida forishliklarning, urug‘larning ildizlarini topish bahonasida xalqimizning uzoq tarixiga, katta ko‘chishlar, qabilalar siljishi, joylarda qaror topishi, oqibatda millatlarning va davlatlarning yuzaga kelishi olamiga sayohat uyushtiradi, o‘quvchining qo‘lidan ushlab, olis zamonlarga olib ketadi, tasavvurini tariximiz, o‘tmishimiz haqidagi yangiliklar bilan boyitadi. Bu tariximizga yangicha nazar bilan qarashning ko‘rinishlari, ayniqsa, yoshlarimizga katta naf beradi. Bu yoshlar uchun ibrat kitobidir.

Ikkinchidan, bunday asarlar, hujjatli xotiralar, aniq faktlarga suyanib yozilgan kitoblar yigirma-yigirma birinchi asrlarning rasmiy tarixini yaratayotgan tarixshunoslar uchun ham foydali, muhim manba vazifasini bajara oladi.

“Umid ila... intildim” shunchaki xotira kitobi emas, u bir oila ajdodlari tarixini ifoda etibgina qolmay, balki o‘zbek olimlari yutuqlarini olamga ko‘z-ko‘zlaydigan asar ham.

Muallif kitobning so‘nggi betidagi she’rda dunyoni bilmoqqa intilganini, umid ila bilimga, yorga, baxtga, iymonga intilganini faxr bilan yozadi. Chindan ham, inson umid bilan yashaydi bu dunyoda.

Men bugungi yoshlarimizga, ayniqsa, hayot so‘qmoqlarining boshida turganlarga mazkur “Umid ila... intildim” memuarini o‘qishni tavsiya qilaman. Siz oddiy bir insonning taqdir yo‘llarini kuzatasiz, shaxs sifatida shakllanish jarayonlarining, sabr-toqatlarining guvohi bo‘lasiz. So‘zsiz o‘z taqdiringizni qiyoslab ko‘rasiz, havasingiz oshadi. Aminman, siz ham ushbu kitobdan ibrat olib millatimizga, Vatanimizga xizmat qila oladigan inson bo‘lishga intilasiz. Kitobda madh etilgan o‘zbekona bir orzu-havas yo‘llari har biringizni olg‘a chorlashiga aslo shubha yo‘q.

**Muhammad ALI,**
**O‘zbekiston xalq yozuvchisi.**

---

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi jamoasi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist, sud faxriysi Qahramon Uljayevga turmush o‘rtog‘i

**Mavsuma ULJAYEVAning**

vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik izhor qiladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1141.32 572 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Sherqulov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.30 Topshirildi — 23.40 1 2 3 4 5 6